

LINGUA FRANCA SIFATIDA INGLIZ TILI: IDENTITED VA LINGVISTIK TENGSIZLIK MUAMMOSI

Ravshanova Shodiyona Ruziboy qizi
O`zDJTU “Sharq filologiyasi fakulteti” talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada globalizatsiya sharoitida ingliz tilining lingua franca sifatidagi roli, uning madaniy identiteti va lingvistik tengsizlikka ta`siri ko`rib chiqiladi. Tadqiqot davomida ingliz tilining keng qo`llanishi xalqaro muloqotni yengillashtirishi bilan birga, ayniqsa ona tili ingliz tili bo`lmagan jamoalar kontekstida til va madaniy identitetning eroziyasiga qanday olib kelishi mumkinligi tahlil qilinadi. Tanqidiy diskurs tahlili yondashuvi asosida ingliz tilining global aloqa vositasi sifatidagi hukmron mavqei kuch munosabatlari, tengsizlik va identitetga ta`sir nuqtai nazaridan tahlil qilinadi.

Kalit soʻzlari: globalizatsiya, lingua franca, ingliz tili, madaniy identitet, lingvistik tengsizlik, xalqaro muloqot, til meʼyorlari, kuch munosabatlari

Аннотация. В данной статье рассматривается роль английского языка как лингва франка в условиях глобализации, с акцентом на его влияние на культурную идентичность и языковое неравенство. Исследование анализирует, как широкое использование английского языка облегчает международное общение, одновременно, в частности, способствуя эрозии языка и культурной идентичности в сообществах, для которых английский язык не является родным. Используя подход критического дискурс-анализа, статья исследует доминирующее положение английского языка как глобального средства общения с точки зрения отношений власти, неравенства и его воздействия на идентичность.

Ключевые слова: глобализация, lingua franca (язык международного общения), английский язык, культурная идентичность, языковое неравенство, международное общение, языковые нормы, властные отношения

Abstract. This article examines the role of English as a lingua franca in the context of globalization, focusing on its impact on cultural identity and linguistic inequality. The study analyzes how the widespread use of English facilitates international communication while, in particular, potentially contributing to the erosion of language and cultural identity in communities whose native language is not English. Using a critical discourse analysis approach, the article explores the dominant position of English as a global means of communication from the perspective of power relations, inequality, and its effects on identity.

Keywords: globalization, lingua franca, English language, cultural identity, linguistic inequality, international communication, language norms, power relations

Kirish. Lingvistik identitet – bu mavzu boʻyicha tez rivojlanayotgan adabiyotlar koʻrsatadiganidek – murakkab hodisa boʻlib, tilga boʻlgan qarashlar va ideologiyalar lingvistik qudratdan ajratib boʻlmaydi. Pavlenko va Blackledge koʻp tilli kontekstda identitetni tahlil qilarkan, “til tanlovi va qarashlar siyosiy tartiblar, qudrat munosabatlari, til ideologiyalari va suhbatdoshlarning oʻz va boshqalarning identitetiga boʻlgan qarashlaridan ajralmasdir” deb yozishadi. XXI asrda ingliz tili xalqaro til miqyosida qolgan davrlardagiga nisbatan katta masshtabdagi soʻzlashuvchilarga ega boʻldi. Hozirda hech qaysi dastur yoki ilova yoʻqki, funksiyasiga ingliz tili kiritilmagan. Ingliz tilining hozirda jahon tili miqyosida tarqalib borayotganida ham Social media

ya'ni ijtimoiy tarmoqning roli beqiyos. Chunki texnologiyalar orqali kirib kelayotgan yangi neologizmlar aynan Social media orqali butun dunyo aholisi ongiga singiydi.

Asosiy qism. Dunyoda taxminan 1.5 milliard kishi ingliz tilida so'zlashadi. Ulardan faqat 400 million (taxminan 25%) ona tili sifatida gaplashadi. Qolgan 1.1 milliard kishi uchun bu ikkinchi yoki chet tili. AQShning o'zida so'zlashuvchilar soni 300 million atrofida bo'lsa, bu ko'rsatkich Buyuk Britaniyada 60 million so'zlashuvchini, Kanadada 19 millionni (ingliz tilida so'zlashuvchi qismi (fransuz tili rasmiy bo'lsa ham)), Avstraliyada 17 million hamda Yangi Zelandiyada esa 4 millionni ko'rsatadi. Bundan tashqari, Hindistonda ham ingliz tilida so'zlashuvchilar miqdori 265 millionni ya'ni 20%ga yaqinni tashkil etadi. Hindistonda ingliz tili yordamchi rasmiy til maqomiga ega. Bu ingliz tili jahon miqyosida global mavqega egaligini ko'rsatadi. Xitoyda esa taxminan 300-400 million kishi ingliz tilini o'rganayapdi yoki biladi. Bugungi kunda dunyodagi eng ko'pingliz tilida so'zlashuvchi aholi Hindiston va Xitoyda to'plangan. Bu esa ingliz tilining "egasi" endi London yoki Vashington emasligini yana bir bor isbotlaydi. Globalizatsiya jarayonida ingliz tilining lingua franca sifatidagi roli jadal oshib bormoqda. Bu jarayon xalqaro muloqotni osonlashtirishi bilan birga, ayrim hollarda madaniy va tilga oid identitetning eroziyasiga olib kelishi mumkin. Ingliz tilini ona tili sifatida bilmaydigan jamoalar uchun bu holat ta'lim, kasbiy imkoniyatlar va ijtimoiy mavqe nuqtai nazaridan lingvistik tengsizlikni keltirib chiqaradi. Balki global tilning mavjudligi odamlarni boshqa tillarni o'rganishga dangasa qilib qo'yar yoki bu imkoniyatlarni kamaytirar. Ba'zan shunday fikr aytiladi: "Bir inson boshqasi bilan gaplashish uchun faqat bitta tilga muhtoj, va agar jahon tili paydo bo'lsa, boshqa tillar asta-sekin yo'qoladi." Shu bilan birga, lingvistik triumfalizm xavfi mavjud bo'lib, ayrim guruhlar bir tilning muvaffaqiyatini boshqalarning hisobiga nishonlashi mumkin.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, ingliz tilining global aloqadagi o'rni kuchayib borayotgan bo'lsa-da, bu jarayon til va madaniy identitet, shuningdek, tengsizlik masalalarini ham yuzaga keltirmoqda. Shu sababli, ushbu maqolada ingliz tilining lingua franca sifatidagi roli, uning jamiyatga ta'siri va identitetga bog'liq muammolar tanqidiy diskurs tahlili yondashuvi orqali tahlil qilindi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Crystal, David (2003). English as a Global Language (2-chi nashr). Cambridge University Press
2. Seidlhofer, Barbara (2005). "English as a lingua franca."
3. Mauranen, Anna (2015). "English as a global lingua franca: Changing language in changing global academia."
4. Ammon, U. (2016). Languages for International Communication 162 bet
5. The Routledge Handbook of World Englishes 2010-yil 212 bet
6. Djamolova, S., & Zubaydova, N. (2024). Ingliz tilining global muloqotdagi va hayotimizdagi o'rni. International Conference on Interdisciplinary Science, 1(12).